



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM,
FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

SIRDARYO
VILOYATI
HOKIMLIGI

GULISTON
DAVLAT
UNIVERSITETI

TIANJIN
XORIIY TILLAR
UNIVERSITETI

BALIKESIR
UNIVERSITETI

YANGLING
KASB-HUNAR
VA
TEXNIKA
KOLLEJI

XORIIY TILLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI TO'PLAMI

Guliston, 16-17 may, 2025 yil

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

GULISTAN STATE UNIVERSITY

PROCEEDINGS OF THE INTERNATIONAL CONFERENCE

URGENT ISSUES AND MODERN APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES

GULISTAN CITY, MAY 16-17, 2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENTSIYA MATERIALLARI
16-17 MAY 2023 YIL, GULISTON SHAHRI

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
16-17 МАЯ 2025 ГОДА, ГОРОД ГУЛИСТАН

UO‘K: 80+372.881.1
BBK: 80+74.261.7
F51

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko‘zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyotga joriy etish yo‘li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya’ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e’tirof etilishiga xizmat qilishdir. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida **2025 yil 16-17 mayda** Guliston davlat universitetida **“XORIJIY TILLARNI O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi o‘tkazilgan. Konferentsiya zamonaviy pedagogika va filologiyaning eng dolzarb ilmiy mavzularini aks ettirishga qaratilgan.

Mas’ul muharrirlar:

fil.f.n., dotsent X. Tojiyev, PhD, dotsent A. Pazilov
PhD, dotsent Sh. Abdurazakova, PhD dotsent G. Norimova
Prof. Dr. Li Yingying, Associate Prof. Zheng Zhanqi
Prof. Dr. Kenan Ziya Tas, Prof. Dr. Shukru Hakan
fil.f.d., prof. F.G. Sharipov, fil.f.d., prof. M.Mamatqulov

Tahrir hay’ati a’zolari:

R. Sh. Axmedov, Sh. R. Hakimova, S. J. Dushaeva

To‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Xonimqul Tojiyev
tavalludining 80 yilligi
munosabati bilan o‘tkazilgan
ilmiy-amaliy anjuman

Asimov's narrative strategy relies on a fast-paced adventure format to maintain interest, interspersed with expository dialogue that conveys information. Unlike didactic texts that halt the story for instruction, Asimov integrates learning moments organically into the plot. For instance, when Lucky explains orbital paths or chemical reactions, it occurs during conversations essential to the story's advancement.

Another noteworthy strategy is Asimov's use of scaffolding through dialogue. Less knowledgeable characters ask questions that invite detailed explanations, mirroring a classroom dynamic.

A major strength of the Lucky Starr series lies in its ability to balance fictional elements with scientific plausibility. Asimov occasionally updated scientific content in response to new discoveries, reinforcing the idea that science is a dynamic process. This feature not only models adaptability but also legitimizes re-evaluation—a crucial aspect of scientific thinking.

Moreover, the speculative elements—such as invisibility devices or telepathic communication—are grounded in extrapolations of known science, stimulating imaginative exploration without descending into fantasy.

Conclusion. Isaac Asimov's Lucky Starr series represents a compelling model of educational science fiction for children. Through engaging narratives, scientifically accurate content, and morally grounded protagonists, the series promotes science literacy, critical thinking, and ethical reasoning.

While often overlooked in favor of Asimov's adult-oriented works, the Lucky Starr books reveal the potential of children's science fiction as a powerful tool for informal education. They offer young readers not only thrilling stories but also the intellectual tools to understand and question the world around them.

Future research might further explore the long-term impact of such literature on STEM engagement and consider how contemporary authors can build on this tradition in the digital age. In a time where scientific understanding is more crucial than ever, the value of well-crafted educational science fiction cannot be overstated.

References

1. Roberts, A. (2000). *Science Fiction*. Routledge.
2. Warrick, P. (1980). *The Cybernetic Imagination in Science Fiction*. MIT Press.
3. Westfahl, G. (2005). *The Greenwood Encyclopedia of Science Fiction and Fantasy: Themes, Works, and Wonders*. Greenwood Press.
4. Franklin, H. B. (2000). *Future Perfect: American Science Fiction of the Nineteenth Century*. Oxford University Press.
5. Miller, G., & McDonnell, J. (2015). STEM Learning Through Sci-Fi Narratives. *Journal of Science Education and Technology*, 24(6), 774–786.

BOLALAR SHE'RIYATIDA ONOMATOPIK BIRLIKLAR ORQALI POETIK TAFAKKURNI UZATISH MASALALARI

Amirqulov Dilshod Toshtemirovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada bolalar she'riyatida uchraydigan onomatopik birliklar — ya'ni tovushga taqlid qiluvchi leksik vositalar — orqali poetik tafakkurni ifodalash va uni tarjima jarayonida saqlab qolish masalalari yoritilgan. Onomatopik birliklar nafaqat tovushni aks ettiradi, balki poetik matnning ohangini, ritmini, obraz va ma'nolar tizimini shakllantiruvchi muhim unsurlar sifatida ham xizmat qiladi. Shuningdek onomatopik birliklarning bolalar poetikasidagi poetik, estetik va didaktik funksiyalarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

KALIT SO'ZLAR. Didaktik, ekstralingvistik, emotsional, estetik, konventsional, obraz, onomatopik birliklar, poetik, ritmga, semantika.

Bugungi globallashuv jarayonida tarjima nazariyasi va amaliyotida milliy koloritni aks ettiruvchi leksik birliklarni tarjima tilida to'g'ri yetkazish va ularning semantik hamda stilistik xususiyatlarini saqlab qolish dolzarb muammolardan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. Bunday birliklar qatoriga onomatopik birliklar — ya'ni tovushga taqlid qiluvchi so'zlar ham kiradi. Ushbu so'zlar shakl va ma'no o'rtasidagi bevosita ekstralingvistik bog'liqlik tufayli tabiiylik va ifodaviylikni oshiradi.

Onomatopik birliklar, ya'ni tovush taqlidiga asoslangan leksik vositalar tilning emotsional va tasviriy imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, “vof-vof” (itning tovushi), “chars-chars” (yoriq, sindirish ovozi) kabi birliklar orqali real hayotdagi tovushlar badiiy matnda jonli tasvirga aylanadi. Tarjimada esa ushbu birliklar ko'pincha muqobil ifodalar bilan almashtiriladi yoki ularning lingvomadaniy xususiyatlari kontekstual tarzda ochib beriladi. Ayniqsa, bolalar adabiyoti singari obraz va ritmga boy matnlarda bu birliklar o'ziga xos poetik funksiyani bajaradi.

Tilshunoslar onomatopik birliklarning quyidagi kommunikativ funksiyalarini ta'kidlaydilar: aniq va jonli tasvir yaratish, emotsional ta'sir kuchini oshirish, o'quvchini matnga jalb etish (ishtirok efekti), poetik ritmni shakllantirish, og'zaki nutqning yozma shakldagi ifodasini ta'minlash. Ammo yozma matnda tovushlarni to'laqonli ifodalash uchun grafik vositalar yetarli emasligi sababli, yozuvda ma'lum bir konventsional¹⁰¹ (shartli) shakl tanlanadi. Bu esa vaqt o'tishi bilan boshqa variantlarning qo'llanishini cheklaydi va lug'atlarda qayd etilgan standart onomatopik shakllar vujudga keladi.

Shunga qaramay, amaliy adabiyotda, xususan, bolalar she'riyatida bu konventsional shakllar bilan bir qatorda semantik jihatdan boy, poetik vazifani bajara oladigan boshqa onomatopik birliklar ham uchrab turadi. Masalan, mashhur bolalar shoiri Quddus Muhammadiyning (1907–1997) “Kaptar” obraziga bag'ishlangan she'rida “g'uv-g'uv” tovushi markaziy poetik element sifatida ajralib turadi:¹⁰²

Kaptarim deydi g'uv-g'uv,
G'uv-g'uvlab nima der u?
Kaptarimning so'zi bu,
Kaptar so'zi qiziq-u...

Bu satrlarda “g'uv-g'uv” tovushi nafaqat kaptarning ovozini ifodalaydi, balki butun she'rning ohangini, ritmini belgilovchi vositaga aylanadi. Shoir ushbu ovozni “o'quv” va “uquv” so'zlari bilan semantik jihatdan bog'laydi:

G'uv-g'uv degani o'quv,
O'quvga kerak uquv,
Kaptar maktabi yo'g'-u,
Kitob-daftari yo'g'-u...

Bu bog'lanish orqali bola ongida kaptar bilimli, aql-idrokli qush sifatida gavdalanadi. Shu tariqa, onomatopik birlik obraz, semantika va didaktik g'oyaning uzviy uyg'unligida hal qiluvchi vositaga aylanadi. Bu esa tarjimada ushbu birliklarni oddiy tovush sifatida emas, balki obrazli, ma'noli va tarbiyaviy yuklama bilan birga tarjima qilish zaruratini tug'diradi.

Xuddi shunday, bolalar shoiri Po'lat Mo'minning “Mayna” nomli she'rida ham onomatopik birlik asosiy poetik yuklamani o'zida mujassam etgan:¹⁰³

Mayna sayrar chug'ur-chug'ur,

¹⁰¹ E.B. Корнева - Ономаптопы в переводческом аспекте 2018. -B.94.

¹⁰² B.S. Jamilova - O'zbek bolalar adabiyoti 2019. -B.80

¹⁰³ Bashorat Jamilova - O'zbek bolalar adabiyoti. 2019. B.112

Balki uni anglash chuqur.
Balki bog'lar unga maktab,
Maktabini sayrar maqtab.
Do'stim, sen ham quvon-qayna,
Lekin darsda bo'lma mayna.

Bu yerda "chug'ur-chug'ur" so'zi maynaning tabiiy ovozi eslatadi va bola ongida jonli tasvir paydo qiladi. Shu bilan birga, u she'rga musiqiylik bag'ishlaydi, ritm va ohang hosil qiladi, asosiy didaktik g'oyani ifodalaydi: darsda mayna bo'lma — ya'ni darsda bo'sh gap bilan shug'ullanma, jiddiy bo'l, bilimga e'tibor ber degan xulosa beriladi.

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, onomatopik birliklar bolalar adabiyotida nafaqat poetik bezak, balki ma'no va tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular yordamida bolaga hayotiy qadriyatlar, ilimga mehr, tabiatga e'tibor obrazli va esda qolarli shaklda yetkaziladi. Tarjimon esa bunday birliklarni to'g'ri anglab, tarjima tilida ham ularning poetik va semantik vazifalarini saqlagan holda ifodalay olishi lozim. Aks holda, asarning estetik va tarbiyaviy qiymati yo'qolib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, tarjimada onomatopik birliklar milliy madaniyat va obrazli tafakkur ko'zgusi bo'lib xizmat qiladi. Ularni to'g'ri tarjima qilish, ayniqsa, bolalar adabiyotida, o'quvchining tasavvurini boyitish, estetik didini shakllantirish va milliy qadriyatlarni yetkazish nuqtai nazaridan nihoyatda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.B. Корнева - Ономатопы в переводческом аспекте 2018. -B.94.
2. Aliyeva, D. - Onomatopik birliklarning tarjima jarayonidagi o'ziga xosliklari. *Til va adabiyot jurnali*, №3, 78–83.
3. B.S. Jamilova - O'zbek bolalar adabiyoti 2019. -B.80
4. Bashorat Jamilova - O'zbek bolalar adabiyoti. 2019. B.112
5. Yusupov, H. (2014). Onomatopoeik birliklar va ularning leksikografik tasnifi. *O'zbek tili va adabiyoti*, №1, 42–47.

RAUF PARFI HAYOTI VA IJODINI O'QITISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLAR

Ataniyazova M.A.

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Reymbayeva M.N.

Qoraqalpoq davlat universiteti

ANNOTATSIIYA: Mazkur tezisda Rauf Parfi hayoti va ijodi, uning she'rlari tahlili bo'yicha darsda didaktik o'yinlar orqali shoirning badiiy mahoratini tahlil qilish, o'quvchilarda estetik zavq haqidagi tushunchalarini boyitish, faol metodlar, juftlikda ishlash ko'nikmalari haqida so'z boradi.

KALIT SO'ZLAR: Rauf Parfi, she'r tahlili, interaktiv metodlar, didaktik o'yinlar, estetik fikrlash.

O'zbek adabiyoti tarixida yurakdan chiqqan, dardini va orzusini chin yurakdan ifoda etgan shoirlar orasida Rauf Parfi alohida o'ringa ega. Uning she'rlari faqat adabiy zavq emas, balki milliy g'urur, tarixiy xotira, dard va orzular bilan yo'g'rilgan bo'lib, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topa oladi. Shu bois, maktab ta'limida shoir ijodini o'rganish nafaqat estetik tarbiya, balki Vatanga mehr, milliylik, insoniylik g'oyalarini shakllantirishda muhim vositaga aylanadi.

"Rauf Parfi hayoti va ijodi" mavzusidagi dars davomida o'quvchilarda shoirning hayot yo'li, ijodiy merosi, poetik g'oyalar va badiiy vositalar haqida chuqur bilim shakllantirildi. Dars jarayonida kichik guruhlarda va juftlikda ishlash shakllari, savol-javob va suhbat

Turdiyeva S.Yu.	681	Speech Processes: Psycholinguistic Barriers and Ways to Overcome Them
Ulashova D.A.	684	O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarning kognitiv tahlili (siyosiy diskurs misolida)
Umirova Z., Alibekova M.A.	686	Old English Morphology: Pronoun, Noun and Others
Usmanova Z.	687	The Role of Terms in the Lexical System of the Language
Xasanov D.A.	689	Media tilshunosligi va uning zamonaviy ommaviy axborot vositalari tilida tutgan o'rni
Xasanov D.A.	691	Phraseological Units and Their Classification
Xasanov D.A.	693	Phraseological Units and Their Pragmatic Aspects in Media Language
Xasanov D.A.	695	Tendencies of Expressiveness in English and Uzbek Newspapers
Xayitova Sh.Sh., Qodirova N.Yu.	696	Semantic and linguocultural Analysis of Phraseology in the English Language: Word Formation and Interpretative Dimensions
Xidirov O.A.	698	Telekommunikatsiya sohasida ilmiy va kasbiy atamalarni tarjima qilish: muammolar va yechimlar
Xusanova M.	700	Sinxron tarjimada psixolingvistika masalasiga yondashuvlar
Xusinova Sh.X.	703	National Identity Reflected through Nicknames in Uzbek and English Cultures
Yuldosheva N.Yu.	704	Ta'limda sun'iy intellekt yordamida tarjimon dasturlardan foydalanish texnologiyalari
Yunusov N., Kuziev Sh., Nuriddinov M., To'ychiboyev I.	706	Yangiliklar kontekstida fe'llarning ifodalanishi hamda ingliz va o'zbek tillardagi qiyosiy tahlili
Абдульдина Б.Ш.	709	Медициналық терминологияны латын тілі сабақтарында оқытудың кейбір мәселелері
Джураева Д.Д.	710	Особенности речевого этикета в узбекском и английском языках на примере инициальных формул
Есенжол Ж.Ж., Макашева А.П.	714	Ағылшын тілі сабағында оқушылардың лексикалық дағдыларын қалыптастыруда менталдық картаны қолдану
Каримова М.	717	Лингвистические особенности русского языка в музыкальных жанрах: от классики до современного хип-хопа
Кулбаева С.С., Бобаназарова Ш.С.	720	Лингвопрагматические особенности категории русского и узбекского языков
Курбанова К.	722	Интеграция филологических знаний с информационными технологиями
Мирхайдарова Н.Х.	726	Ўзбек тилида “маънавият” умумий семали лексемаларининг тадқиқ муаммолари
Рузиева У.А.	729	Сопоставительная дефиниция русских и узбекских примет
Сафи Айгүл Мағзамқызы	732	Қазақ тілінің бүгіні мен болашағы
Собирова Б.Б.	734	Паремиологические единицы с концептом «цвет» в русском и узбекском языках
Хамраева Р.Р.	736	Проблемы перевода литературных текстов: основные подходы и методы

3. JAHON ADABIYOTI VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI

Abdunabiyeva Z.N.	738	The Constellation of the True King
Akhmedov R.Sh.	739	Plot Suspense and Characterization in “Pebble in the Sky”: Routine and Mastery
Akhmedov R.Sh., Li YanWei	741	“Lucky Starr” Series as an Example of Educational Science Fiction for Children
Amirqulov D.T.	743	Bolalar she'riyatida onomatopik birliklar orqali poetik tafakkurni uzatish masalalari